

OLMANI EKISH VA PARVARISHLASH

Mansurov Komiljon Murodjon o'g'li
Guliston Davlat Universiteti magistrant talabasi

Kalit so'zlar: Intensiv tip, an'anaviy navlar, payvandlash, olma qurti, meva kanasi, binafsha rang qalqondor, shudring, kalmaraz, monilioz, hosil yig'ishtirish.

Annotatsiya: Olma ko'chatlarini ekishga tayyorlashda avvalo, tomorqa maydonida suvning yurishi hisobga olinib, yer yaxshi tekislanadi. Ushbu maqola olma ekish va parvarishlash va ularda bo'ladigan kasalliklar, ularni bartaraf etish usullari haqida.

Ko'chatlarni ekishga tayyorlash va ekish. Ko'chatlarni ekishga tayyorlashdan avvalo, tomorqa maydonida suvning yurishi hisobga olinib, yerga yaxshi tekislanadi. Maydonning har kvadrat metrda 6-10 kg go'ng, chirindi, 200-250 g fosfor, 100-120 g kaliy va 150-200 g ammoniyli azot o'g'iti solinib, chuqur (23-30 sm) haydaladi.

Olmani payvandlariga qarab ekish sxemasi o'zgaradi: kuchli o'suvchi payvandtagda- 6x5 m (sug'oriladigan bo'z tuproqlarda) va 5x5 m (shag'alli-qumlik tuproqlarda), o'rta bo'yli payvandtagda 5x4 m, past bo'yli payvandtagda- 3x2.5m. Bu yerda 3 m- ko'chat qatorlar orasidagi masofa, 2.5 m- ko'chatlar orasidagi masofa. Olma ko'chatlarini ekish muddati kuzda noyabr oyiga, ertabahorda esa fevralning oxiri- mart oyining boshlariga to'g'ri keladi.

Ko'chat ekish uchun chuqurligi va kengligi 60x60 sm bo'lgan chuqurchalar kovlanadi. Chuqur qazishda tuproq ustki qismini 20-25 sm qatlami o'raning bir tomoniga, qolgan qismi ikkinchi tomonga olib qo'yiladi. O'raga 350-400 g fosfor, 30-40 g kaliy o'g'iti hamda 8-10 kg chirigan go'ngni tuproq bilan aralashtirib solib, keyin ko'chat ekiladi. Ko'chatni ekishdan oldindan tayyorlab qo'yilgan shaltoqqa (yangi mol go'ngi tuproq bilan 1:1 nisbatda aralashtirilib, qaymoqsimon massa tayyorlanadi) botirib olish lozim.

Ko'chat o'raga tik holda qo'yilib, tuproq bilan ko'miladi. Ko'chatni payvand qilingan joyi tuproqdan 4-5 sm yuqorida qolishi kerak. Ko'chat ekilgandan so'ng har bir chuqurga to'latib suv quyiladi. Shunda tuproq zichlanib, nihol yaxshi ko'karadi. Tuproq cho'kkandan so'ng ko'chat atrofiga yangi tuproqqa solib, to'ldiriladi. Ko'chatlar tuproqning namligiga qarab vaqti-vaqti bilan sug'orib turiladi.

Tomorqa maydoni 0.03 ga bo'lsa, ushbu maydonning quyosh tushadigan sharqdan janubga qaragan tomoniga olmaning o'rta bo'yli ertaki, o'rtaki va kechki navlaridan 2-3 tupdan ekish tavsiya qilinadi. Tomorqa maydoni 0.06 ga bo'lsa, yarmiga sabzavot, qolgan qismiga esa mevali daraxtlar, 0.10 ga bo'lganda sabzavot uchun maydon qoldirilib, qolgan kattaroq qismiga mevali ko'chatlarni joylashtirish mumkin.

Parvarishlash. Daraxtlarga bahorda yarusli (qavatli) qilib shakl beriladi. Bunda daraxtning birinchi qavatida 3-4 dona asosiy shox qoldiriladi, qolganlari qirqib tashlanadi. Ikkinchi qavat shoxlari asosiy shoxlardan 30-40 sm, birinchi qavat shoxlaridan 25-30 sm masofada qoldiriladi. Uchinchi qavat shoxlari ham shu zaylda shakllantiriladi. Shakl berishda shox-shabballarning bir-biriga soya berishini oldi olinib, bir maromda siyraklashtiriladi.

Daraxt hosil qilmaydigan yilida butash tizimi quyidagicha amalga oshiriladi: shu yili o'sib chiqqan novdalar kuchliroq kaltalashtiriladi, xalqasimon meva shoxlari siyraklashtiriladi, murakkab xalqasimon shoxlar kaltalashtiriladi. Daraxtlar hosil bergan yili novdalar 35-40 sm o'sgan eski shoxlariga taqab qirqiladi. Bir yillik novdalarini qisqartirish hosil kurtaklarini ko'payishiga olib keladi.

Tomorqadagi olma daraxtlariga 300-350 g azotli, 250-300 g fosfor va 200-250 g kaliyli o'g'itlar sof holda solinishi tavsiya qilinadi. Har 2-3 yilda o'rtacha 50-60 kg chirigan go'ng solish hosildorlikni oshiradi.

Bo'z tuproqlarda olma daraxtlari o'suv davri mobaynida 4-6 marta, shag'alli yerlarda 10-12 marotaba sug'oriladi.

Kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish. Olma daraxtiga zararkunandalardan olma qurti (mevaxo'r), meva kanasi, binafsha rang qalqondor, kasalliklardan un shudring, kalmaraz (parsha), monilioz zarar keltiradi.

Binafsha rang qalqondorga qarshi erta bahorda kurtaklar yozilgunga qadar 5 foizli Karate em.k. purkaladi. Bundan tashqari, 17.5 foizli Perfekto sus.k., 20 foizli Bagira em. k., (10 sotix maydon hisobiga 15-20 ml) preperatlari bilan ishlov beriladi.

Olma qurtiga qarshi 17.5 foizli Perfekto sus.k (10 sotix maydon hisobiga 15-20 ml), 5 foizli Karate em.k.(10 l suvga 3-4 g) qo'llanilganda yaxshi samara beradi.

Meva kanasiga qarshi 17,5 foizli Perfekto sus.k.(10 sotix maydon hisobiga 15-20 ml) purkaladi.

Olmaning kalmaraz (parsha), monilioz kasalliklariga qarshi Bordo suyuqligining 3 foizli (10 l suvga 300 g mis kuporasi + 300 g so'ndirilgan ohak) eritmasi sepiladi. Kasalliklarga qarshi tadbirlar dori vositalari kurtaklar yozilguniga qadar o'tkaziladi.

Hosilni yig'ishtirish. Olma navlarining pishish muddati may oyining oxirlaridan boshlanib, oktabr oyining boshlariga qadar davom etadi. Odatda, ertaki olmalar qisqa muddat saqlanadi, ular bir tetimda yig'ishtirib olinadi. O'rtaki va kechki navlarda terim bir necha marta o'tkaziladi. Har bir nav pishgan paytida o'ziga xos rang va tusga kitadi. Buni hosilni terishda inobatga olish kerak. Hosilni yig'ishtirishda mevani bir qo'l bilan ohista ushlab, meva bandiga zarar yetkazmasdan uzib olinadi. Terilgan mevalar yashiklarga joylashtiriladi. Yashiklar omborda saqlashga qo'yilishi mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. (PDF) APPLES AND ITS WATER REQUIREMENTS: SOME WATER RETENTION SUBSTANCES. Available from: https://www.researchgate.net/publication/353296322_APPLES_AND_ITS_WATER_REQUIREMENTS_SOME_WATER_RETENTION_SUBSTANCES [accessed Nov 16 2021].
2. Alisher Botirov and Osamu Arakawa (2021). Root Growth Changes in the Winter Planting of Young ‘Miyabi Fuji’ Apple Trees International journal of Horticultural Science and Technology Vol. 8, No.3, pp. 227-233 10.22059